

O‘SMIRLAR NUTQNING PSIXOLIGVISTIKASINI JAHON TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANISH

Avazova Alfiya Shukrulloevna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlar nutqining psixolingvistik xususiyatlari, ularning xulq- atvorlaridagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlar, jahon tilshunosligida ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar, tadqiqotlar tahlil qilib yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘g‘zaki nutq, o‘smirlar nutqi, fiziologik, psixolingvistika, jahon, o‘smir, xorijiy, tadqiqot.

1. Kirish

O‘smirlik davri inson hayotining eng muhim, murakkab va o‘zgaruvchan davri hisoblanadi.

Bu davrda bolada nafaqat nutqiy, ruhiy balki fiziologik o‘zgarishlar ham kuzatiladi. O‘smirlik davri 12- 17 yoshni o‘z ichiga oladi.

Shaxs ulg‘aygani sari uning nutqi ham rivojlanib boradi.

Ayniqsa tashqi ta’sirlar tufayli o‘smir bola so‘zlarni eshitish, qabul qilish va nutqda qo‘llashida o‘zgarishlar seziladi.

O‘smir o‘sha davrda o‘z "men"ini anglashga intiladi va o‘zini tutishida, harakatida, so‘zlashuvda ham kattalarga taqlid qilgan holatda ulardan ajralib turishga harakat qiladi.

O‘smirlar o‘z nutqiga xorijiy so‘zlarni qo‘shib, ataylab buzib gapirish orqali yangi so‘zlar yaratib, o‘z tengdoshlari orasida ajralib turishga harakat qiladi. Ayrim xorijiy so‘zlar o‘smirlar o‘rtasida juda keng tarqalgan.

O‘smirlar trend, layk, flex, lazer, krinj, krash, feyk, strim kabi so‘zlarni qo‘llash orqali kattalar tushunmaydigan o‘zaro maxfiy aloqa o‘rnatishadi.

Tadqiqot manbai sifatida. tilshunoslikka yaqin bo‘lgan psixolingvistika o‘z tekshiruv usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi.

Jahon tilshunosligida o‘smirlar nutqini o‘rganish bo‘yicha bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar o‘tkazilmoqda.

Uilyam Labov (AQSH)

"O‘smirlar til o‘zgarishlarining asosiy"dvigateli" hisoblanadi.

L. Vigotskiy (Rossiya)

" Nutq o‘smirning ichki fikrlash jarayonini shakllantiruvchi vositadir."

Nutqni ishlab chiqish va qabul qilishda o‘smir miyasining roli muhimdir. Hozirgi raqamli texnologiyalar davrida o‘smirlar nutqida xorijiy so‘zlar ko‘proq uchraydi. Ular bu jargon, ko‘cha tilida qo‘llanadigan ibora va so‘zlarni juda tez o‘zlashtirib nutqda qo‘llashadi, ammo bu so‘zlar vaqtincha bo‘lib biroz muddatdan so‘ng unutiladi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida "Computer Mediated Communication" (CMC) yo‘nalishida o‘smirlar nutqini o‘rganishda asosiy o‘rin tutmoqda.

Emodjilar, qisqartmalar (LOL, OMG, ASAP) va "slangizm" lar o‘smirlar nutqining yozma shaklini og‘zaki nutqqa yaqinlashtiradi.

Xulosa

O‘smirlar nutqi - bu oddiy o‘tkinchi narsa emas, tilni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Psixolingvistika obyekti - insonning turli maqsad va vaziyatda ishlatadigan tili va nutqi hisoblanadi. O‘smir yoshida bolaning nutqiga keng ahamiyat berilsagina kelajakda ravon so‘zlaydigan, keng fikrlaydigan bilimli farzand ko‘rinishda ulg‘ayishiga ko‘mak bergan bo‘lamiz.

Psixolingvistik nuqtai nazaridan qaraganda nutq o‘smirlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Nurmanov A, Shahobiddinova Sh " O‘zbek tilshunosligi tarixi."- Toshkent: O‘zbekiston.2002
- 2.Safarov Sh "Pragmalingvistika.- Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008(Nutqiy aktlar va muloqot psixologiyasi boyicha).
- 3.Vigotskiy L.S. Mishleniye i rech.- M: Labirint,1999(Nutq va tafakkur bog‘liqligi bo‘yicha fundamental asar)
- 4.Ziyonet.uz
- 5.Scholar.google.com